



ORIENTAL UNIVERSITETI
SHARQ TILLARI KAFEDRASI

**«SHARQ TILLARI TADQIQI
VA TA'LIMI MUAMMOLARI»**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

10-dekabr, 2024-yil

TOSHKENT-2024

Mas’ul muharrir:

Mamataxunov Nozimjon – Oriental universiteti rektori

Ma’sul muharrir o‘rinbosari:

Nasirova Malika – Oriental universiteti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori

Tahrir hay’ati:

Meliboyev Mirkomil	– Oriental universiteti Filologiya fakulteti menejeri
Rahmatova Gavhar	– Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası mudiri, dotsent
Djurayeva Feruza	– Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası dotsenti
Ikromjonov Akmaljon	– Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası v.b. dotsenti
Isamutdinov Azizbek	– Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası katta o‘qituvchisi
Mirsadikov Ulug‘bek	– Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası katta o‘qituvchisi
Tadjiyeva Umida	– Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası katta o‘qituvchisi

Nashrga tayyorlovchi:

Sotvoldiyev Sirojiddin – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Sodiqov Qosimjon	– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Turkshunoslik” Oliy maktabi professori, filologiya fanlari doktori
Rustamiy Salima	– Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası professori

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

Ushbu to‘plam Oriental universiteti Kengashining 2024-yil “___” _____dagi ___-sonli yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

“Sharq tillari tadqiqi va ta’limi muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Oriental universiteti, 2024. – 396 bet.

To’plamda Oriental universitetida o’tkazilgan “Sharq tillari tadqiqi va ta’limi muammolari” deb nomlangan respublika ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etgan taniqli olimlar, yosh tadqiqotchilarning ma’ruzalari jamlangan. Maqolalarda sharq tillari va adabiyotining nazariy masalalari, xorijiy tillar o’qitish metodikasi, manbashunoslik kabi sohalarga oid dolzarb masalalar yoritilgan.

Материалы республиканской научно-практической конференции на тему “Проблемы исследования и преподавания восточных языков”. – Ташкент: Университет Oriental, 2024. – 396 стр.

В сборнике представлены доклады известных ученых и молодых исследователей, принявших участие в республиканской научно-практической конференции “Проблемы исследования и преподавания восточных языков”, проведенной в Университет Oriental. В статьях освещаются актуальные вопросы теории восточных языков и литературы, методики преподавания иностранных языков, а также источниковедения.

Materials of the Republican Scientific and Practical Conference “Problems of Research and Teaching of Oriental Languages”. - Tashkent: Oriental University, 2024. - 396 pages.

The collection comprises reports from prominent scholars and young researchers who participated in the Republican scientific-practical conference titled “Problems of Research and Teaching of Oriental Languages” held at Oriental University. The articles address current issues related to theoretical aspects of Oriental languages and literature, methodologies of teaching foreign languages, and source studies.

البحوث المشاركة في المؤتمر العلمي التطبيقي الجمهوري تحت عنوان "قضايا الدراسات في اللغات الشرقية وتعليمها".
– طشقند: جامعة أورينتال، 2024م. – 396 صفحة.
تحتوي المجموعة على المحاضرات و الدراسات لمشاهير العلماء والباحثين الذين شاركوا في المؤتمر العلمي التطبيقي الجمهوري تحت عنوان "قضايا الدراسات في اللغات الشرقية وتعليمها" الذي تم عقده في جامعة أورينتال. فهذه الدراسات تلقي الضوء على مجالات عديدة مثل المسائل النظرية للغات الشرقية وآدابها، ومنهجية تدريس اللغات الأجنبية، كما يتضمن القضايا المعاصرة ودراسات المصادر.

MUMTOZ ADABIYOTNI O'QITISHDA ASL MATNLARDAN FOYDALANISH

Rixsitilla ALIMUXAMEDOV,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Turkshunoslik oliy maktabi dotsenti,
fil.f.d.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'limning turli bosqichlarida mumtoz adabiyotimiz vakillarining asarlaridan keltirilgan namunalarni o'qitish masalasi ko'rib chiqilgan. Unda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning ruboiy, Ubaydinning tuyug'ini turli yoshdagi o'quvchilarga tushuntirish usullari, matnlarni o'qituvchilarning o'zlari tushunishlari, buning uchun mumtoz adabiyot, tildan xabardor bo'lishlari kerakligi aytilgan. Shu bilan birga, mumtoz matnlarni o'rgatishda turli rasmiy internet saytlari, nashrlardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *mumtoz adabiyot, asl matn, adabiyot o'qitish, metodika, Navoiy, Bobur, Ubaydiy, ruboiy, tuyuq.*

Hozirgi globallashuv davrda ijtimoiy-gumanitar fanlarning mavqei biroz pasaygandek tuyuladi. Lekin adabiyot insoniyat tarixida azaldan ma'naviy ozuqa, ta'lim-tarbiya manbai bo'lib kelgan.

Ta'limning turli bosqichlarida mumtoz adabiyotimiz namunalari darsliklar orqali o'qitib kelinmoqda. Darsliklardagi matnlar ma'nolari imkon boricha ochib beriladi. Ularni o'quvchiga yetkazish esa muallimning vazifalaridan sanaladi. Muallim qay darajada savodli, o'z fanini tushungan va tushuntirayotgan mavzusini bilsa, ularni o'quvchiga yetkazib berishi yaxshi bo'ladi. Aks holda matn tushunilmaydi, qiyin, muammoli jumboq bo'lib qolaveradi. Vaqt o'tib ushbu matnlar o'quvchi tafakkurida tushunib bo'lmas bir orzudek, yoyinki, aql yetmas manbadek o'rin egallashi, yoki ularga bo'lgan qiziqish vaqt o'tgan sari so'nib borishi mumkin.

Bu kabi holatlar bo'lmasligi uchun o'quvchilarga yoshliklaridan mumtoz adabiyotimiz namoyandalari asarlarini to'g'ri tushuntirish, ma'nolarini to'g'ri yetkazish asosiy maqsadlardan biri bo'lishi kerak.

Bu boradagi ishlarni bog'chalardan boshlash kerak. Bog'chada ham mumtoz adabiyotimiz vakillaridan Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning to'rtliklaridan tarbiyalanuvchilarga yodlatishadi. Bunda ularga o'zlari tushunadigan va mazmuni sodda to'rtliklardan boshlash kerak.

Ruboiyni bolalarga tushuntirish uchun avvalo tarbiyachining o'zi ushbu ruboiyni yaxshi tushunmog'i kerak. Buning uchun ruboiyning har bir misrasida kelgan so'zlarni tushunish lozim. Masalan, Alisher Navoiy qalamiga mansub quyidagi ruboiyni ko'rib chiqamiz.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish¹⁸⁴.

Bunda birinchi misra (qator)dagi "g'urbat" so'zining ma'nosini anglash kerak. "G'urbat" so'zining izoh.uz saytidagi ma'nosiga qaraymiz: "**G'URBAT:** 1. Vatandan uzoqda yashash; musofirlik, g'ariblik. 2. G'am-tashvish, kulfat. 3. s. t. Ortiqcha tashvish keltiruvchi narsa, ish¹⁸⁵". Bu o'rinda ushbu so'zning birinchi ma'nosi anglashiladi. Bunga keyingi qatorlardagi mazmun ishora qilmoqda. Misra davomidagi "g'arib" so'zi "bechora, kambag'al" ma'nosini beradi. "Shodmon" so'zi "xursand" so'zini anglatadi. Ikkinchi misrada "shafiq" so'zi kelmoqda. Uning ma'nosi saytda quyidagicha keltirilgan: "**SHAFIQ:** 1. esk. kt. Birovga mehribonlik qiladigan, shafqatli, muruvvatli. 2. Shafiq (erkaklar ismi)¹⁸⁶". Bu o'rinda so'zning birinchi ma'nosi – "shafqatli" anglashilmoqda. Uchinchi misradagi "butsa" so'zi hozirgi o'zbek tilida uchramaydi. Ma'nosi "o'ssa, unsa" degani. So'nggi misradagi "oshiyon" so'zi esa "**OSHYON:** 1. Qush uyasi; in. 2. Hovli-joy, boshpana. 3. ko'chma Makon, egallangan joy¹⁸⁷". Bu o'rinda so'zning birinchi ma'nosi kelmoqda.

Yuqorida misralardagi tushunarsiz so'zlarning ma'nolarini bilib oldik. Endi ularni sharhlashga o'tamiz. Sharhlashda uni o'quvchilarning qaysi qatlami – bog'cha bolalarimi, maktab o'quvchilarimi, litsey-kollej talabalari yoki oliy ta'limdagi talabalarimi shuni aniqlashtirib, so'ng yoshga doir qilib tushuntirish kerak.

Kichik yoshdagi tinglovchilarga ruboiydagi falsafiy fikrni sodda, maishiy qilib tushuntirgan ma'qul. Masalan: "O'z uyidan uzoqda bo'lgan kishi (inson) hech xursand bo'lmas ekan, chunki u doim uyini, yaqinlarini sog'inadi. Boshqa yerdagilar unga hech ham o'z yaqinlaridek mehribon bo'lmaydi. Bu xuddi bulbulni oltin qafas ichiga solib, uning oldiga gul qo'ygandek. Lekin bulbul ozod bo'lmagani uchun unga qafas zindondek, uning ichidagi gul esa tikanchalik bo'la olmaydi". Yoshi kattaroq tinglovchilarga esa yuqorida keltirilgan ruboiyni biroz jonli qilib, unga falsafiy ruh qo'shgan holda tushuntirish kerak bo'ladi. Bunda albatta ruboiydan anglashilgan ma'no – vatan, yurt sog'inchini ham ta'kidlash kerak.

Endi xuddi shu qolipda yaratilgan Zahiriddin Muhammad Boburga mansub quyidagi ruboiyni ko'rib chiqamiz:

Yod etmas emish kishini g'urbatta kishi,

Shod etmas emish ko'ngulni mehnatta kishi.

Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'lmadi, oh,

G'urbatta sevunmas emish, albatta, kishi¹⁸⁸.

Ushbu ruboiydan insonning bir o'zi qolgan paytdagi yolg'izligi, har qanday holatda ham uning ko'ngli yorishmasligi anglashiladi.

Bunda birinchi misradagi "g'urbat" so'zining ma'nosini anglash kerak. "G'urbat" so'zining izoh.uz saytidagi ma'nosiga qaraymiz: "**G'URBAT:** 1.

¹⁸⁴ <https://www.hikmatlar.uz/quote/59>

¹⁸⁵ <https://izoh.uz/word/g%E2%80%99urbat>

¹⁸⁶ <https://izoh.uz/word/shafiq>

¹⁸⁷ <https://izoh.uz/word/oshiyon>

¹⁸⁸ <https://baburid.uz/library/151>

Vatandan uzoqda yashash; musofirlik, gʻariblik. 2. Gʻam-tashvish, kulfat. 3. s. t. Ortiqcha tashvish keltiruvchi narsa, ish¹⁸⁹”. Ruboyida yuqoridagi ikkinchi maʼnosida kelmoqda. Uchinchi misradagi “gʻaribliq” soʻzi “yolgʻizlik” maʼnosini anglatmoqda. Soʻnggi misradagi “gʻurbat” soʻzi ham ikkinchi maʼnoda – “gʻam-tashvish, kulfat”ni anglatmoqda. Ruboiyning umumiy maʼnosi quyidagicha: “Kishilar bir-birini gʻam-tashvishli paytda eslamas ekan. Mehnat qilib ham kishi koʻnglini chogʻ (xursand) qilolmas ekan. Mening koʻnglim yolgʻizlikda xursand boʻlmadi, oh. Gʻami bor inson sevinarmidi?! (albatta sevinmaydi!)”.

Boburning ushbu ruboiysida uning darbadarlikda yurgan paytlari, barcha undan yuz oʻgʻirgan vaqtda shod boʻlmasligi holati chiroyli aks ettirilgan. Katta yoshdagi oʻquvchilarga mazkur ruboiyning yozilish tarixi, uning falsafiy maʼnosi – hayot falsafasini koʻrsatgan holda, hayot har doim ham insonlarga nisbatan shafqatli boʻlavermasligi, inson turli vaziyatlarda faqat oʻzigagina tayanishi va shunga qarab ish tutishi kerakligini tushuntirish kerak.

Mumtoz adabiyotimiz namunalarini hozirda mumtoz ijodkorlarga atab maxsus yaratilgan saytlar orqali tahlil qilish mumkin. Bularga Zahiriddin Muhammad Boburga atalgan (<https://baburid.uz/>), soʻzlar izohiga bagʻishlangan (<https://izoh.uz/>), nashr etilgan kitoblarning milliy nashriyotlar bazasi (<https://www.ziyouz.com/>) kabi saytlarni misol keltirsa boʻladi. Oʻquvchilarga berilayotgan maʼlumotni birinchi boʻlib oʻqituvchi oʻzi oʻqib, tahlil qilishi, agar yoshiga, dunyoqarashiga mos boʻlsa, keyin uni mashgʻulotga tayyorlamogʻi kerak boʻladi.

Avvallari darsliklarda, adabiyot xrestomatiyalarida mumtoz adabiyot namunalaridan matnlar berilib, ularning pastiga asar matnida uchragan notanish soʻzlar lugʻati berilardi. Oʻqituvchilardan esa mumtoz adabiyotimiz namunalari bilan tanishganlik darajasi, asar yozilgan davr tili, adabiyoti va boshqa oʻziga xos boʻlgan xususiyatlarni bilish talab etiladi. Mashgʻulot davomida oʻquvchilar tomonidan beriladigan har qanday savolga toʻgʻri, misollar orqali javob berilishi kerak. Ayrim hollarda matnlardagi nozik maʼnolarni tushunish uchun oʻqituvchining tayyorgarlik darajasi yuqori boʻlishi, soʻz oʻyini boʻlgan oʻrinlarda maʼnolarni farqlay olish qobiliyatiga ega boʻlishi kerak. Masalan, mumtoz janrlardan boʻlgan tuyuqni maktab oʻquvchilari, litsey-kollej yoki oliy oʻquv yurti talabalariga tushuntirish uchun tajnisli, yaʼni omonim soʻzlarning maʼnolarini bilish kerak boʻladi. Bunda oʻqituvchi mumtoz adabiyot namunalaridan xabardor boʻlmogʻi, ayniqsa oʻsha davr tilini bilishi shart. Bunday bilimlar oliy taʼlimda maxsus kurslar, asosiy fanlar qatorida boʻlmogʻi kerak. Masalan, oʻrta asr ijodkorlaridan Ubaydiy qalamiga mansub quyidagi tuyuqni olib qaraylik.

Otlanib, ey, shahsuvorim otqa-sen,
Koʻz oʻqin jonimgʻa necha otqa-sen.
Barchadin ul urunduk xalqaro,
Baxt-u davlat birla yaxshi otqa-sen¹⁹⁰.

¹⁸⁹ <https://izoh.uz/word/g%E2%80%98urbat>

¹⁹⁰ Ubaydiy devoni qoʻlyozmasi. OʻzRFASHI, asosiy fond, №8931. 270b varaq.

Ushbu tuyuqda “otqa-sen” soʻzi tajnis – omonim boʻlib kelyapti. Uning uch misrada maʼnosi farqli. Shu farqni anglash uchun oʻqituvchi mumtoz tilni bilishi kerak. Quyida mazkur tuyuqning maʼnosini sharhlashga harakat qilamiz: “Ey shahsuvorim, sen *otga* (hayvon) minib, koʻz oʻqini necha marta menga *otgansan* (feʼl). Xalqlar orasida baxtu davlat bilan yaxshi nom – *otga* (nom, ism) loyiqsan, munosibsan”.

Yuqorida keltirilgan tuyuqda omonim soʻzlar eski oʻzbek tilidagi soʻzlardir. Turkiy tillar, xususan oʻzbek tili omonim soʻzlarga juda boy. Shu sababli tuyuq ular orasida keng tarqalgan. Boshqa xalqlarda yoʻq.

Bilishimiz kerak-ki, har doim ham tuyuq yaratishda mualliflar eski oʻzbek tilidagi soʻzlardan foydalanmagan. Baʼzida forscha, arabcha soʻzlardan, qorishiq holatda ham foydalanganlar. Baʼzida tajnisi tom, baʼzida esa tajnisi mutlaq qoʻllangan. Bularning barchasini tushunish esa oʻqituvchidan maxsus tayyorgarlik talab etadi. Bu, albatta taʼlim jarayonida oʻqituvchining maxsus fanlar: eski oʻzbek tili, mumtoz adabiyot, adabiyot nazariyasi, aruz ilmidan bilim olishini talab etadi. Maqsadimiz ajdodlarga munosib avlod boʻlish ekan, bu yoʻlda har qanday qiyinchilik, bilimlarni oʻrganishimiz, kelajak avlodga yozma merosimizni asl matn orqali oʻqib, toʻgʻri tushuntiradigan kadrlar tayyorlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://baburid.uz/library/151>
2. <https://izoh.uz/word/g%E2%80%98urbat>
3. <https://izoh.uz/word/oshyon>
4. <https://izoh.uz/word/shafiq>
5. <https://www.hikmatlar.uz/quote/59>
6. Ubaydiy devoni qoʻlyozmasi. OʻzRFASHI, asosiy fond, №8931.

JARKINOVA T. Falsafiy lirika ufqlarida	181
FAYZIYEVA S. Jadidlar davrida sharq adabiyotining o‘rganilishi	185
EGAMQULOV K. “Nurali” dostonida lo‘li, ot obrazlari talqini	189
RAJABOV F. Nurulloh Gench she‘rlarida tabiat tasviri	192
UMAROVA N. XX asrning 60-yillarida Misr adabiyotida romanchilik rivoji	196
TADJIYEVA U. Arab xalq maqollarining semantik xususiyatlari	200
TILOVMURODOVA SH. Madaniy uyg‘unlashuv va narrativ innovatsiya: Nirmal Varmaning jahon adabiyotiga qo‘shgan hissasi	204
RAYIMJONOV S. Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik merosi	207
RAXMONOV A. Mutarriziy va uning “Nahv risolasi”	211
TURSUNALIYEVA M. Ogahiyning “Gulshani davla” asari na’t qismining qo‘lyozma va nashridagi tafovutlari	215
NE‘MATOVA S. Madaniy meros: Ahmad Yassaviy ta’limoti	219

3-SHO‘BA. SHARQ TILLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR

НАСИРОВА М. Чет тилини ўқитиш жараёнида муаммоли ўқитиш технологиясини қўллаш	225
RUSTAMIY S. Arab tilini o‘qitishning dastlabki bosqichida qo‘llanadigan usullar	229
MIRQOSIMOVA M. Kooperativ texnologiya – til ta’limida faol ta’lim muhitini yaratishning innovatsion shakli	233
ALIMUXAMEDOV R. Mumtoz adabiyotni o‘qitishda asl matnlardan foydalanish	237
AXMEDOVA N. Til ta’limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	241
МАХАМАДХОДЖАЕВ Б. Институты и центры по обучению арабскому языку лиц, не являющихся его носителями	244
TURG‘UNOVA N. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va ulardan ona tilini o‘qitishda foydalanish	249
YAKUBOVA F. Sharq tillarini o‘qitishda ba’zi fikr va mulohazalar	254
O‘TKIROVA L. Arab tili kabi sharq tillarini o‘qitishda masofaviy ta’lim muammolari va uning rivojlantirish yo‘llari	259
SIDIQOVA M. Xorijiy tillarni o‘qitishda masofaviy ta’lim muammolari va uni rivojlantirish yo‘llari	263